

**OG'ZAKI NUTQNI RIVOJLANTIRISHDA SUN'IY
INTELLEKTNING TA'SIRI**

Baxodirova Xadicha Xurshid qizi

Toshkent ijtimoiy innovatsiya universiteti, 1-kurs magistranti

Email: xadichabintuxurshid@gmail.com

Tel: +998917847976

Annotatsiya. Ushbu tadqiqot sun'iy intellekt (SI) vositalarining ingliz tili og'zaki nutq ravonligini rivojlantirishdagi samaradorligini tizimli tahlil qilishga bag'ishlangan. Tadqiqotda Tasodifiy Nazoratli Tajriba (RCT) va empirik ishlar natijalari tahlil qilingan. Natijalar shuni ko'rsatadiki, SI asosidagi chatbotlar va nutqni avtomatik tanib olish (ASR) tizimlari an'anaviy metodlarga nisbatan ravonlik va aniqlikni statistik jihatdan sezilarli darajada ($p < .001$) oshirdi. Biroq, texnik cheklovlar va etik masalalar hal etilishi talab etiladi. Xulosa qilib aytganda, gibrid ta'lim modeli (SI + O'qituvchi) eng samarali yechim hisoblanadi.

Kalit so'zlar: sun'iy intellekt, og'zaki nutq, ravonlik, chatbotlar, ASR tizimi.

Abstract. This study presents a systematic review of Artificial Intelligence (AI) effectiveness of AI tools in developing English speaking fluency. The research synthesizes findings from Randomized Controlled Trials (RCTs) and empirical studies. Results indicate that AI-based chatbots and Automatic Speech Recognition (ASR) systems significantly improve ($p < .001$) fluency and accuracy compared to traditional methods. Nevertheless, technical limitations and ethical concerns must be addressed. A hybrid learning model (AI + Teacher) is concluded to be the most effective solution.

Keywords: artificial intelligence, speaking skills, fluency, chatbots, ASR system.

Аннотация. Данное исследование посвящено системному анализу эффективности инструментов искусственного интеллекта (ИИ) в развитии

беглости английской разговорной речи. В работе синтезированы результаты рандомизированных контролируемых испытаний (РКИ) и эмпирических исследований. Результаты показывают, что ИИ-чат-боты и системы автоматического распознавания речи (ASR) статистически значимо ($p < .001$) повышают беглость и точность речи. Однако технические и этические аспекты требуют решения. Гибридная модель обучения (ИИ + Преподаватель) признана наиболее эффективной.

Ключевые слова: искусственный интеллект, разговорная речь, беглость, чат-боты, система ASR.

Kirish. So‘nggi yillarda til o‘rganish jarayoniga sun‘iy intellekt (SI) texnologiyalaridan foydalanish katta ahamiyat kasb etmoqda. Bugungi kunda gapirish ko‘nikmasini rivojlantirishda ularning o‘rni shunchalik ortdiki, bu mavzu tadqiqotchilar uchun dolzarb ilmiy yo‘nalishga aylandi. Hozirgi kunda innovatsion texnologiyalar va raqamli yechimlar o‘quv jarayonlarini yanada samaraliroq, shaxsiylashtirilgan va interaktiv holga keltirish imkonini bermoqda [5]. Zamonaviy raqamli texnologiyalar yordamida dars mazmuni va shaklining takomilga yetkazilishi o‘quvchilarda mustaqil fikrlash va mantiqiy tahlil qilish qobiliyatining rivojlanishiga xizmat qilib kelmoqda [8]. Ushbu tadqiqotning maqsadi ingliz tili og‘zaki nutq ravonligini oshirishda SI qanday o‘zgarishlar yasayotganini o‘rganish va mavjud ilmiy topilmalarni yaxlit holatda taqdim etishdan iborat.

Asosiy qism. Ushbu ish tizimli sharh (systematic review) metodologiyasiga asoslanadi. Tahlilga 2023-2025-yillarda chop etilgan, asosan Tasodifiy Nazoratli Tajriba (RCT) va kvazi-tajriba usullaridan foydalangan empirik tadqiqotlar kiritildi.

Tanlov mezonlari:

- 1) *Ingliz tilini ikkinchi til (EFL/ESL) sifatida o‘rganuvchilar;*
- 2) *SI vositalari (chatbotlar, ASR, ITS) ishtiroki;*
- 3) *Og‘zaki nutq ko‘rsatkichlari (ravonlik, aniqlik, murakkablik) o‘lchovi.*

Jadval 1. SI vositalarining funksional tasnifi:

Yo'nalish	Vosita	Asosiy funktsiya
Generativ tizimlar	Chatbotlar (ChatGPT)	Tabiiy muloqot muhitini yaratish
Nutqni tanib olish tizimlari	ASR ilovalari	Talaffuzni fonetik tahlil qilish
Aqlli o'qitish tizimlari	ITS (ELSA SPEAK)	Individual feedback va motivatsiya

Jami 15 ta manba tahlil qilindi, ulardan eng ishonchli 10 tasi ushbu tezisdagi aks ettirildi.

Ushbu 1- jadvalga asoslangan tahlillar natijasida SI vositalarining og'zaki nutqqa ta'siri uchta yo'nalishda aniqlandi:

Ravonlik va Aniqlik Ko'rsatkichlari. Chatbotlar bilan muntazam mashg'ulotlar nutqning grammatik aniqligi va moslashuvchanligini statistik jihatdan sezilarli darajada ($p < .001$) oshiradi [10]. Sinov guruhlarida an'anaviy metodlarga nisbatan yuqori ko'rsatkichlar qayd etildi. ASR tizimlari esa talaffuzdagi xatolarni kamaytirish va pauza davomiyligini qisqartirishda samarali bo'ldi [3,11].

Motivatsiya va Faollik. SI yordamida bajarilgan mashqlar o'quvchilarda o'ziga ishonch va muloqotga kirishish istagini oshiradi. Mashina tomonidan tanqid qilinmaslik holati psixologik to'siqlarni kamaytiradi [7,9]. ELSA Speak kabi ilovalar til ko'rsatkichlarining 17% gacha ortishini ta'minlab, ichki motivatsiyani rag'batlantiradi [6].

An'anaviy Metodlar bilan Taqqoslash. Kvazi-tajribalar shuni ko'rsatadiki, qisqa va o'rta muddatda SI vositalari an'anaviy usullardan ustunlik qiladi. Biroq, bu faqat texnologiya mavjudligi bilan ustunlik qilmaydi. balki uning to'g'ri integratsiyasi bilan bog'liq [2].

Endi SI vositalarining o'ziga xos xususiyatlari haqida gaplashsak, generativ chatbotlar bunga misol bo'lib keladi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, chatbotlar bilan muntazam muloqot qilish nutqning grammatik aniqligini sezilarli

darajada oshiradi [10].

Birinchi *kontekstual muloqot*. ChatGPT real vaqtdagi suhbatdosh rolini o'ynab beradi va bu talabalarga oson gapirish imkonini beradi. Ikkinchi *shaxsiylashtirilgan fikr mulohaza* bo'lib, tizimda mavjud bo'lgan xatolarni darhol tuzatibgina qolmay, balki o'sha jumlaning qanday qilib yanada tabiiyroq yetkazib berish (natural sounding) mumkinligi bo'yicha tavsiyalar beradi. Keyingi o'ziga xos xislat esa *psixologik qulaylikdir*. Talabalar jonli muloqot mobaynida xato qilishdan qo'rqadigan bo'lsalar, chatbot bilan muloqotda bunday to'siqlar bo'lmaydi. Bu esa nutqiy ko'nikmani oshirib, faollikni rivojlantiradi.

Texnik cheklovlarga kelsak, garchi SI samarali vosita bo'lsa-da, jiddiy cheklovlar mavjud. ASR tizimlarining turli aksent va shevalarga sezgirligi hali ham pastligicha qolmoqda [4]. Bu fonetik xilma-xillikka ega o'quvchilarda baholash aniqligiga shubha uyg'otadi. Ikkinchidan, *pragmatik va madaniy cheklovlar* ham mavjud bo'lib bunda ko'plab SI tizimlari faqat yuzaki grammatik xatolarni tahlil qilish xususiyatiga ega. *Muloqotning pragmatik qoidalari va madaniy konvensiyalari* bo'yicha chuqur fikr mulohaza berishda imkoniyatlar cheklangan [2,4]. Bundan tashqari, *etik masalalarni* ham ko'rib o'taylik. Algoritmik xolislik, shaxsiy ma'lumotlar xavfsizligi va AI fikr mulohazasiga haddan tashqari ishonish bilan bog'liq etik xavotirlar "qizil bayroq" hisoblanadi [1,6]. *Gibrid yondashuvda* esa tadqiqotlar shuni tasdiqlaydiki, SI o'qituvchini almashtirish uchun emas, balki uning faoliyatini qo'llab-quvvatlash uchun mo'ljallanishi kerak. Gibrid yondashuv (SI + O'qituvchi nazorati) eng yuqori natijalarni beradi [1].

Xulosa va amaliy tavsiyalar. Sun'iy intellekt ingliz tili og'zaki nutq ravonligini oshirishda samarali yordamchi vosita hisoblanadi. U ravonlik, aniqlik va motivatsiyani oshirishda an'anaviy metodlardan ustunlik qilishi mumkin. Biroq, texnik cheklovlar va etik masalalar tufayli SI to'liq avtonom tizim sifatida emas, balki o'qituvchi nazorati ostidagi gibrid modelda qo'llanilishi maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Akhter, E. (2025). The impact of human-machine interaction on english pronunciation and fluency. *Green technologies and Circular Economy Innovations*, 04(02), 473-500.
2. Cahyono, A. E., & Rosita, R. (2023). THE IMPACT OF USING AI-BASED LANGUAGE LEARNING PLATFORMS ON ENGLISH SPEAKING SKILLS. *TRANSTOOL*, 2(2), 1–8.
3. Dandu, G., et al. (2024). AI-Driven Language Learning: The Impact of Rosetta Stone on ESL Students' speaking Proficiency. *Rupkatha Journal*, 16(04).
4. Fathi, J., et al. (2024). Improving EFL learners' speaking skills via artificial intelligence-mediated interactions. *System*, 121, 103254.
5. Jalolov, T. S. (2025). Ta'limda sun'iy intellektni o'rni. *New Modern Researchers*, 2(2), 32–40.
6. Karim, S. A., et al. (2023). Promoting EFL Students' Speaking Performance through ELSA Speak. *Journal of Languages and Language Teaching*, 11(4), 655.
7. Lu, C., et al. (2025). Implementation of an AI English-Speaking Interactive training System. *IEEE Access*, 13, 132052–132066.
8. Sapayeva, G. U. (2025). Sun'iy intellekt va uning ta'limdagi o'rni. *Ustozlar Uchun*, 84(5), 23–28.
9. Yang, F. (2024). AI in Language Education: Enhancing Learners' Speaking Awareness. *Int. Journal of Information and Education Technology*, 14(6), 828–833.
10. Zhang, J., et al. (2025). The influence of natural language processing on EFL speaking skills. *Journal of Educational Computing Research*, 64(1), 59–91.
11. Zou, B., et al. (2023). An investigation into artificial intelligence speech evaluation programs. *SAGE Open*, 13(3).